

TA'LIM JARAYONIGA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

TATU FF assistenti, **Z. Qadamova**

TATU FF talabasi, **A. Sotvoldiyev**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lim jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashdagi muammolar tahlil qilingan va ularni rivojlantirish omillari to'g'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: *Innovatsion ta'lim texnologiyalari grafik organayzirlar, muommoli ta'lim texnologiyalari, kreativ texnologiyalar, didaktik o'yinlar.*

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, ta'limda kredit-modul tizimi amaliyoti joriy etilayotganida demokratiyalash va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. «Ta'lim to'g'risidagi qonun»da zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p marta takrorlanib, ularni oliy o'quv yurtlariga olib kirish zarurati uqtirilgan.

Olib borilgan tahlillarning ko'rsatishicha, nega bugungi kunga kelib, zamonaviy pedagogik texnologiyaga qiziqish shunchalik darajada kuchaydi, degan mulohaza tug'ilishi tabiiy. Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilimli va malakali kadrlarni etishtirib kelgan pedagogikaning o'ziga xos uslublari mavjud. Pedagogik jamoatchilikning aksariyati mana shu yo'ldan bormoqda, ammo mustaqil va kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo'l kutilgan samara bilan xizmat qila olmaydi. Chunki buning zamirida ma'lum sabablar mavjud, ya'ni;

1. Dunyoning eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olish uchun, aholining ta’lim darajasini samarali jadallashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishning zarurligi;

2. Fan-texnika taraqqiyotining yuqori darajada rivojlanganligi natijasida axborotlar tizimi hajmining tobora ko‘payib borayotganligi;

3. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni ta’limga tatbiq etish, ta’lim jarayonini kompyuterlashtirish, o‘quv-tarbiya jarayonida axborot texnologiyasi va texnik vositalardan keng foydalanishga erishishi;

4. Talaba va professor-o‘qituvchi faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, o‘qituvchi ta’lim maqsadi va mazmunini puxta bilishi, ta’lim usullari, metodlari va vositalarini yaxshi egallagan bo‘lishi, talabanning qiziqish va intiluvchanligini to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltira olishi lozimligi;

5. Professor-o‘qituvchilar ta’lim jarayonini yuqori darajada, samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilashi, ta’lim natijasini oldindan qayd etishi, o‘quv predmetlarini to‘liq o‘zlashtirishga erishish uchun zaruriy ta’lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlashga erishishi zarurligi;

6. O‘quv jarayoni uchun zarur moddiy-texnik bazaning yaratilgan bo‘lishligi;

7. Ta’lim-tarbiya jarayoni natijalarini xolisona va ob‘ektiv baholash, talabalarning bilim va malakalarini egallash jarayonini nazorat qilish va baholashni avtomatlashtirishga erishilganligi;

8. O‘sib kelayotgan yosh avlodni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg‘or bilim berish usuli hisoblangan ob‘ektiv borliqqa kompleks yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishi kabi muammolardadir.

Demak, inovatsion ta’lim texnologiyasi yuqorida keltirilgan shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta’limiy tadbir hisoblanadi. Bugungi kunda pedagogik texnologiyani tushunish uchun asosiy yo‘l-aniiq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta’lim oluvchi bilan muntazam o‘zaro aloqani o‘rnatish, zamonaviy pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta’lim oluvchining xatti-harakati orqali

o‘qitishdir. O‘zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o‘quv jarayonini to‘liq qamrab olishi kerak. Ayniqsa ta’limda kredit-modul tizimi joriy etilayotgan oliy o‘quv yurtlarida talabalarga mustaqil ta’lim bo‘yicha topshiriq va ko‘rsatmalar berilganda turli xil metodlardan foydalanish talab etiladi. Demak, real ta’lim amaliyoti ilg‘or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishini to‘liq tasdiqlamoqda. Biroq ilg‘or pedagogik texnologiyalarni oliy ta’lim jarayoniga qo‘llash bilan bog‘liq bir qator muammolar ham ko‘zga yaqqol tashlanmoqdaki, ularni e‘tiborga olish va hal etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muhammadjonov A., Toxirova S. YARIMO ‘TKAZGICHLARNING TURLARI. ICHKI VA TASHQI YARIMO ‘TKAZGICHLAR //Research and implementation. – 2023.20:23
2. Nabijonov, R., & Ergasheva, A. (2023). Masofaviy o‘qitish tizimlarini ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni. *Engineering Problems and Innovations*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/44>
3. Nabijonov, R., & Ergasheva, A. (2023). Media portallar yaratishda vue.js operatorlari tahlili. *Engineering Problems and Innovations*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/52>
4. Nabijonov, R., & Ergasheva, A. (2023). Deykstra-Prim algoritmini amaliy tahlil qilish. *Engineering Problems and Innovations*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/71>
5. Азимов, Р. К., Шипулин, Ш. Ю., Холматов, У. С., Абдуллаев, Т. А., & Исмоилов, Х. А. (2016). Морфологический метод структурного проектирования оптоэлектронных преобразователей на основе полых и волоконных световодов (ОЭГТВС). In *Современные материалы, техника и технологии в машиностроении*. III Международная научно-практическая конференция (pp. 15-19).

6. Шипулин, Ю. Г., Рустамов, Э., Абдуллаев, Т. М., & Мейлиев, С. Н. (2019). Интеллектуальный оптоэлектронный датчик температуры с волоконно-оптическими элементами. In Проблемы получения, обработки и передачи измерительной информации (pp. 248-253).
7. Шипулин, Ю. Г., & Абдуллаев, Т. М. (2020). Состояние и развитие интеллектуальных оптоэлектронных преобразователей перемещений на основе волоконных и полых световодов. *Universum: технические науки*, (5-1 (74)), 5-9.
8. Абдуллаев, Т. М. (2021). Оптоэлектронное устройство сортировки сельскохозяйственной продукции.
9. Шипулин, Ю.Г. , & Мейлиев, С.Н. (2022). Состояние и развитие оптоэлектронных дискретных преобразователей перемещений на основе волоконных и полых световодов. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (Special Issue 4-2), 1201-1208.
10. Набижонов , Р., & Обухов , В. (2023). Дальнейший вклад блокчейн-сетей в развитие дистанционного образования. *Research and Implementation*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/772>
11. Обухов, В., Ходжиматов Ж., & Набижонов , Р. (2023). Развитие блокчейн технологий в узбекистане: современные вызовы и перспективы. *Research and Implementation*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/768>
12. Обухов , В., Хамидов Э., & Набижонов , Р. (2023). Поэтапное внедрение блокчейн технологий в Республике Узбекистан. *Research and Implementation*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/770>
13. Xonto‘rayev, S. (2023). Oliy ta’lim muassasalarida Web resurslarda mavjud dasturiy, texnik va uslubiy muammolarni bartaraf etish. *Scientific-technical journal (STJ FerPI, ФарПИ ИТЖ, НТЖ ФерПИ, 2023, Т. 27. спец. выпуск№ 2)*.
14. Nabijonov , R., & Rasulov , A. (2023). Zamonaviy media portal imkoniyatlaridan unumli foydalanish. *Research and Implementation*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/767>

15. Sobirov Muzaffarjon Mirzaolimovich, Nabijonov Ravshanbek Mukhammadjon Ugli, & Khaitboev Elbekjon Iminjon Ugli (2023). Development of automated management system in technical processes. *Science and innovation*, 2 (A4), 195-198. doi: 10.5281/zenodo.7868406
16. Nabijonov , R., Ergasheva , A., Ibrohimova , N., & Azamov , S. (2023). Masofaviy ta'limda internet tizimlari afzalliklari va ulardan xavfsiz foydalanish usullari. *Research and Implementation*, 1(4), 31–38. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/881>
17. Nabijonov , R., Azamov , S., Ergasheva , A., & Ibrohimova , N. (2023). Biznesni avtomatlashtirishning bugungi kundagi ahamiyati. *Research and Implementation*, 1(4), 16–24. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/879>
18. Nabijonov , R., Ibrohimova , N., Azamov , S., & Ergasheva , A. (2023). Bulutli texnologiyalar tizimida axborot xavfsizligi. *Research and Implementation*, 1(3). извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/877>
19. Nabijonov , R., & Rasulov , A. (2023). Zamonaviy media portal imkoniyatlaridan unumli foydalanish. *Research and Implementation*. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/767>
20. Muxtarov F., Sadirova X. Korxonada axborot xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy usullari //Engineering problems and innovations. – 2023.
21. Sadirova X., Ergasheva A. Axborotning maxfiyligini, yaxlitligini va foydalanuvchanligini buzish usullari //Engineering problems and innovations. – 2023.
22. Sh, U. (2019). Use of Chebyshev polynomials in digital processing of signals. *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology*, 6(2).